



O'ZBEK YOSHLARI NASRIDA MADANIYAT VA MILLIY KOLORIT NAMOYON BO'LISHI

Suvanov Husniddin Norqulovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika
institute rektor yordamchisi

Tel:+998977868805 E-mail: hsuvanov@tersu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17379473>

Annotatsiya

Maqolada madaniyat, milliy kolorit va milliy nutqning badiiy asarda namoyon bo'lishi yoritib berilgan. Madaniyatning kolorit bilan uyg'unligi asosli fikrlar bilan keltirilgan. Yosh o'zbek nasrda ijodkorlarning badiiy asarlarida milliy ruhga va milliy xarakter g'oyaviy jihatdan ifodalanishi ochib berilgan.

Kalit so'z: Madaniyat, badiiy asar, xalqonalik, tili, milliy kolorit, milliy ruh.

Abstract

The article highlights the manifestation of culture, national color and national speech in the artistic work. The combination of culture and color is presented with reasonable ideas. Young Uzbek prose reveals the ideological expression of the national spirit and national character in the artistic works of creators.

Key words: Culture, artistic work, folklore, language, national color, national spirit.

Аннотация

В статье освещается проявление культуры, национального колорита и национальной речи в художественном произведении. Сочетание культуры и цвета представлено разумными идеями. Молодёжная узбекская проза раскрывает идейное выражение национального духа и национального характера в художественных произведениях творцов.

Ключевые слова: Культура, художественное творчество, фольклор, язык, национальный колорит, национальный дух.

“Madaniyat” arabcha “madaniyat” - madinalik, shaharlik ta'lim-tarbiya ko'rganlik – kishi ma'osida keladi. Madaniyat insonlarning tabiatni, nutqiy faliyat, borliqni o'zlashtirish jarayonida yaratgan moddiy hamda ma'naviy boyliklardir. Shuningdek, tarixda foydalangan milliy boyliklarimizni, qadryatlarni, tarixiy obidalarini, urf-odatlarini saqlab qolish va ularni shu millat uchungina rivojlantirish. Madaniyat tushunchasi ilk bor Mark Tulyiy Sitseronning “Tuskulan qo'lyozmalari” (er. av. 45 y.) asarida qo'llay boshlagan. G'arbda madaniyat (kultura) atamasi nemis yuristi Samuel Pufendorf (1632 1694) tomonidan XVII asrda iste'molga kiritgan bo'lib, fransuz ma'rifatparavarlari tomonidan ommalashtirilgan. Rossiyada bu atama XIX asrning o'rtalariga iste'molda bo'la boshladi. Madaniyatni faqatgina inson bilan tasavvur qilsa bo'ladi. Madaniyat - inson faoliyatining bosh mezonidir. Insonlar faoliyati davomida madaniyat shakllanganini e'tirof etishimiz mumkin. “Madaniyat — insondagi yetuk fazilatlarning madaniylashuvi orqali amalga kiritilishini kuzatamiz. “Madaniyat” tushunchasini odatda san'at, fan va din tushunchalari bilan chegaralanishi maqsadga muvofiq emasligini aytishimiz mumkin. Zero, madaniyat tushunchasi ostida muayyan millatning tarixi, mentalitetiga xos ko'rinishlari ifodalanadi. Millat etikitning asl mohiyati ochib beriladi. Madaniyat harqanday millatning hayotida o'ziga xos o'rin tutadi. E. Sepir fikri bilan aytganda,



jamiyatning faoliyat va fikrlash tarzini madaniyat belgilasa, aynan qanday fikrlashini til belgilaydi. Bu esa tilga nafaqat madaniyatdan mustaqillik maqomini beradi, balki ularning o'zaro munosabatiga belgilovchilik ahamiyatini ham yuklaydi¹. Madaniyat orqali millat nutqiy faoliyatning o'rinli ko'rinishi maqsadga muvofiqdir. Nutq qalb ko'rinishining asosiy shaklidir. Qalb esa badiiy adabiyot bilan hamnafas yashaydi. Badiiy adabiyotda orqali ramziy belgilar ko'p. Madniyat va milliy kolorit xalqning yuzidir. Xalq yashar ekan milliy madaniyati va milliy koloriti bevosita yashayveradi. Millatning o'zigagina taalluqli bo'lgan belgilari bo'ladi. Shu belgilarga ko'ra, millatning ichki va tashqi xarakterli madaniyatini ko'rsatib beradi. Bundan aytishimiz mumkinki, madaniyat va milliy kolorit bevosita uyg'un tushunchadir. Milliy kolorit ham madaniyatning mohiyatili belgilaridandir. Buni teran anglashimiz mumkinki, insondagi madaniyat va milliy kolorit sivilizatsiyaning ramziy belgilaridan ekanligini ko'ramiz va uyg'unlikda ekanini ko'ramiz.

Kolorit tushunchasi bugunga va kelajak uchun boshlang'ich poydevordir. Koloritning muhim tarkibiy qismidan bo'lgan nutq madaniyati ham yunaltirilgan ijtimoiy hodisa hisoblanib, uning inson va jamiyat munosabatini, shaxs faoliyatining sifat ko'rsatkichi desak bo'ladi. Kolorit pirovard natijasi sifatida milliy ruh, milliy xarakter, milliy urf-odatlar va madaniy boyliklarning yosh ijodkor badiiy asarlarida singdirilishida yaxshi bo'lmoqda. Shuningdek, madaniyatning tarixan qurilish ishlari, savdo-sotiq, hunarmandchilik, ta'lim-tarbiya markazlari, kitob yozish, arxitektura, kitobxonlik, yozuv rivojidadagi muhim omil bo'lganligini ta'kidlaydilar. Milliy kolorit ong hamda til ko'lamining reprezentanti hisoblanadi. Adabiyot, kolorit va etnos mentalikka bevosiga aloqador tugunchalardir. Mentalitet ham o'z navbatida, individ, nutqiy jamoatning kognitiv bazasini tashkil qiluvchi kognitiv qurilmalar — strukturalarning ombori sanaladi. Kolorit mentalitet asosining paydo bo'lish yo'li bilan amalga oshadi. Kolorit muayyan xalqning milliy va lisoniy olamni anglashdagi iporaniti hisoblanadi. Kolorit va madaniyat tushunchasini adabiyot fani tomonidan o'rganiladi. Kolorit, ya'ni tarix, adabiyot, falsafa, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, antropologiya, etnografiya, san'atshunoslik, lingvistika va boshqa bir qator fanlar kesishuvida yashaydi. Kolorit ilmiy bilimlar integrtsiyasini maqsad qiluvchi kompleks gumanitar tushuncha hisoblanadi. Kolorit inson ongida madaniyatning mavjud bo'lish va taraxiy bo'lishi, madaniyatni egallash qonuniyatlarining o'ziga xosligidan iborat. Milliy kolorit nazariy bilimlar sistemasini o'rganuvchi ta'limotdir. Milliy koloritni o'rganish obyekti sifatida qarashning o'ziga xos murakkab tomonlari esa, koloritga nisbatan turfa talqin va yondashuvlarning ko'pligida kuzatiladi. Bugungi kunda milliy kolorit ikki yo'nalishda rivojlanmoqda. Ularning bittasi — gumanitar milliy madaniyatshunoslik bo'lib, madaniyat va uning ichki qonuniyatlari, strukturaviy xususiyatlarini uning: adabiyot, san'at, til, mifologiya, din, ideologiya, axloq, fan singari shakllari misolida o'rganadi.

Milliy kolorit har bir millatning kelib chiqishiga ham bog'liqdir. Etnografik, tarixiylik, etnomadaniyat tushunchasiga ham taalluqlidir. Etnomadaniyatning o'ziga xosligi shundaki, har bir xalq, dunyoni predmetni anglatuvchi tushunchalar tizimi orqali idrok etadi. Demak, ijtimoiy sohalaridagi kognitiv tamoyillarning tobora mustakamlanib borishi evaziga, milliy

¹ Усмонов Ф. Тил ва тафаккур муносабати ва тилшуносликда антропоцентризм тамойили хусусида. Илмий хабарнома, АДУ, №2 2015 йил. - 94-б.

kolorit va milliy madaniyatning o'rganilish obyektini o'z ko'lamini kengaytirib boradi. Madaniyat va koloritning o'zaro uyg'unligi orqali ijodkor badiiy asar yozadi.

Badiiy adabiyot bir millatning tarixini, ayni vaqtdagi jarayonini xoslik jihatlarini aks ettiruvchi madaniy-ma'rifiy va milliy boylikdir. Badiiy adabiyotni o'tmish, bugun va kelajak ko'zgusi deb uchta so'z bilan ta'riflasakda, lekin shu oddiy so'z zamirida butun bir millatning tarixi, hoziri va ertasi o'z o'rnini topgan bo'ladi. Xo'sh, bitta roman, qissa va hikoyada tarix, buguni va kalajagining jam bo'lishi shart emas. Badiiy asarda yuqoridagi ko'rinishlar har xil metodlarda va badiiy asar qismlarida kelishi mumkin. Milliy madaniyatning, milliy ruhning qanday saviyada badiiy adabiyotga singdirilishi ijodkorning etnomadaniyatni ruhiyatiga jo qilganida. Millatning etnogenezi va psixologik kechmishlari, hoziri va ertasiga qaysi jihatdan bog'lanishi ko'zga tashlanadi. Ajdodlarga izdosh bo'lib, ularning ilm yo'llarini davom ettirayotgan yosh ijodkorlarimiz. Hozirgi yoshlar nasrida milliy ruh tasviri o'z qadr-qimmatiga ega. Anvar Suyun, Nodirabegim Ibrohimova, Asliddin Mustafoev, Akmal Murod, Sherzod Halil, Bibi Robiya Saidova, Jasur Kengboev, Sarvar To'rayev, Nargiza Asadova, Gulnoz Mamarasulovalar badiiy asarda milliyligimizni eslatuvchi xususiyatlar talaygina. Milliylikni ta'minlovchi belgilar: Milliy til, milliy xarakter, ruhiyat, milliy-axloqiy qoidalar, urf-odat etnografik jihati va peyzajning o'ziga xosligidir.

Milliy koloritni ifodalovchi so'zlar va boshqa birqancha xarakterli belgilar o'z o'rnida qo'llanilib kelmoqda. Bugungi yoshlarning nasrda ijod qilayotganlarining asarlarida koloritni ta'minlovchi bir qancha belgilar bor. Yoshlar nasrida milliy ruh yangilanishi dunyo adabiyoti tajribalarini ham puxta egallaganida ko'rinadi. Mana shunday o'tmish, bugun va kelajakni qissa, hikoyalarida jamlab ketayotgan ijodkorlarimizdan A.Suyun, N.Chori, S.Tursun va Bibi Robiya Saidova kabi ijodkorlarimiz milliy ruhni asarlarida tasvirlamoqda. Milliy nutq, milliy xarakter, milliy urf-odatlar va koloritni rang-barangliklardan unumli foydalanmoqda. Yozuvchilar asarlarini o'qir ekanmiz, tarixiy ilmiy manba o'qiyotgandek his qilasan. Shu ondayoq bugungi kunga hamohang nasriy yo'nalishda yozilayotganini sezasan kishi. Ijodkorlar asarida o'zbek koloritiga xos barcha xususiyatlarni mujassamlashtirgan. Ayni vaqtda A.Suyun, N.Chori, S.Tursun va Bibi Robiya Saidova asarlarini milliy kolorit bilan sug'orilgan badiiy asarlar yozmoqda. Milliy koloritni ifodalashda ba'zi hollarda ifodani maqollar orqali aks ettirgan. Masalan: It bo'l, qush bo'l, ko'p bo'l. Maqol mohiyati o'zbek millatining qoniga singib ketgan. M.Yusuf she'rida "O'nta bo'lsa o'rni boshqa deydilar"² kabi misrasini yodga. Millatimizda o'nta farzand bo'lsada har birining ota-ona uchun og'irlik qilmaydi. Kerak bo'lsa jonini aytmaydi. Millatimiz bolajon xalq ekanligi maqoldan ma'lum. Shunday aforizm, maqol va hikmatli so'zlar ko'p o'rinda qo'llanilgan.

A.Suyun, N.Chori, S.Tursun va Bibi Robiya Saidova asarlarida urf-odatimizni yorqinroq ifodalash uchun iboralardan ham ustalik bilan foydalangan. Yozuvchilar o'z asarlarida personajlar nutqi, qolaversa, ularni kitobxonlarga to'laqonliroq tasvirlash maqsadida muallif nutqi orqali beriladigan izohlarga ham alohida e'tibor qaratadi. Ijodkorlarning hayot in'ikosi sifatida yaratadigan badiiy asarlari personajlar nutqida ham ularning milliylik belgilari yaqqol aks etib turadi. Yozuvchilar qahramonning so'zlash tarzini, o'ziga xos ohangini jumalardan tashkil topgan suhbatlar, dialoglar, monologlar orqali

² Мухаммад Юсуф "Уйкудаги киз" Тошкент 1989 й



tasvirlashga, qahramon xarakteridagi belgilarning shakllanishini u bilan aks ettirishga alohida e'tibor beradilar.

Milliylikni ta'minlovchi omillardan milliy til, milliy xarakter, milliy koloritga xos so'zlar, uning mohiyatiga nechog'lik kiritilganligini ko'rasiz va kitobxonning milliylik qadriyatlariga hurmati oshishiga ishonch hosil qilasiz. Har bir shaxs yuragida Vatanga, ota-onaga, aka-ukaga, opa-singilga, do'st-qarindoshga bo'lgan mehri, mehr bulog'idan qaynab chiqadi. Sanjar Tursunning "Muzaffar tong" hikoyalar to'plami ham keng mazmun-mohiyatga egaligi bilan badiiy adabiyotlarimiz durdonalari qatoridan joy oldi. "Muzaffar tong"da yozuvchi qahramonning tafakkur olami, unda inson hayoti, uning taqdir yo'li va qismati o'z ifodasini topgan. Har bir hikoyasida hayotimizda sodir bo'lib o'tgan yoki bo'lishi mumkin bo'lgan voqea-hodisalar muallif tomonidan o'quvchi-kitobxonga badiiylik qonuniyatlariga asoslanib yetkazib berilgan. Anvar Suyunning "Eshmonbek" qissasini o'qigan kitobxon tariximizdan, milliy urf-odatlarimizdan, milliy o'yinlarimizdan va umuminsoniy xarakterlarimizdan xabar topadi. Ikki ijodkorning ham hikoyalarda milliy ifodani jo'n qilib yetkazib bergan. Badiiy asarda ko'tarilayotgan muammolar, o'quvchi e'tiboriga havola qilinayotgan badiiy asar mavzusi va mazmuni bevosita milliy ruh orqali tasvirlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. CHARACTERISTIC ASPECTS OF NATIONAL COLOR IN BIBI ROBIA SAIDOVA'S STORY" OQMAYDIGAN TOSH"
H SUVANOV Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and
2. Husniddin, Suvanov. "" ESHMONBEK" QISSASIDA MILLIY RUH TALQINI." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI (2022): 126-131.
3. Kolorit ijodkorning va xalqning milliy qirralarini ochib berguvchi omildir
4. HN Suvanov Science and Education 4 (6), 962-965
5. " ESHMONBEK" QISSASIDA MILLIY RUH TALQINI S Husniddin
6. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 126-131
7. А. Суюн.Фўбдинтоғ ҳикоялари. Акдмнашр. Тошкент–2005 й. 37 б.
8. Suvanov H. N. et al. Kolorit ijodkorning va xalqning milliy qirralarini ochib berguvchi omildir //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 962-965.
- 9.
10. 8. Husniddin Norkulovich Suvanov Termiz State University Teacher Uzbekistan ARTISTIC INTERPRETATION OF NATIONAL COLOR IN PROSE OF UZBEK YOUNG PEOPLE 28.02.2023
11. NATIONAL COLOR AND COMPARATIVE ANALYSIS IN THE WORKS OF MAHTUMQULI, GAFUR GHULAM AND ANVAR SUYUN
12. H Suvanov Modern Science and Research 3 (2), 778-781
13. MANIFESTATION OF THE NATIONAL COLOR CHARACTERISTIC OF THE NATIONAL MENTALITY IN THE WORKS OF BIBI ROBIA'SAIDOVA
14. H Suvanov Modern Science and Research 2 (10), 210-216